

---

# OTAXON XAYRULLAYEV VILOYAT HOKIMINING FARG'ONA VA XITOY O'RTASIDA SAVDO-IQTISODIY VA INVESTITSIYAVIY HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI BO'YICHA MASLAHATCHISI ETIB TAYINLANDI

**Xayrullayev Otaxon Bahodirovich viloyat hokimining Farg'ona va Xitoy o'rtasida savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha maslahatchisi etib tayinlandi. Otaxon Xayrullayev ushbu lavozimda jamoatchilik asosida ish olib boradi.**

Otaxon Xayrullayev 1991 yilda Farg'ona shahrida tug'ilgan. Farg'ona politexnika institutini hamda Xitoydagi Tyantszin politexnika universitetini qurilish yo'nalishida tamomlagan. 2016 yildan buyon tadbirkorlik faoliyatini bilan shug'ullanib kelgan.

Viloyat hokimining maslahatchisi funktsiyalari barcha tegishli boshqarma va tashkilotlarning Farg'ona va Xitoy o'rtasida savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni rivojlantirish, viloyatimizga Xitoy investitsiyalarini keng jalb etish, viloyatimizda ishlab chiqarilgan va yetishtirilgan mahsulotlarning Xitoya eksporti ko'lagini kengaytirish borasidagi ishlarini muvofiqlashtirish, Farg'ona va Xitoy ishbilarmonlarining o'zaro hamkorligini oshirish va boshqa aloqador masalalarni qamrab oladi.

Otaxon Xayrullayev viloyatimizda investitsiya muhitini yanada takomillashtirish, xorijiy investorlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, davlat xizmatlari olishlarini qulaylashtirish, investorlarga faoliyatining huquqiy, iqtisodiy va boshqa masalalari bo'yicha maslahatlar berish hamda ularga yuzaga keladigan masalalarni hal etishda zarur yordam va tezkor ko'mak ko'rsatish maqsadida yaqinda Farg'ona shahrida tashkil etilgan Xitoylik tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash markazi faoliyatiga ham rahbarlik qiladi.

## **Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating**

[Facebook](#), [Telegram](#), [Facebook](#), [YouTube](#), [Instagram](#)

2023-11-15 19:40:24